

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FONETIKA ASOSIDA TIL KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV VA AXLOQIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI

Zokirova Soxiba Muxtoraliyevna

FarDU o'qituvchisi, filologiya fanlari doktori (DcS), professor
s.zokirova1987@gmail.com

Buzrukova Olimaxon Ismoilovna

FarDU 2-bosqich magistranti
Olimaxakimboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20628248>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida fonetika materiallari asosida o'quvchilarning til kompetentligini shakllantirishda kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlarni o'zaro uyg'unlashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqot doirasida fonetik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida kreativ metodlar va didaktik topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, fonetika mashqlari mazmuniga axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali o'quvchilarda nutq madaniyati, ijtimoiy xulq-atvor va shaxsiy mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlar integratsiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilarida til kompetentligini samarali rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilib, amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, til kompetentligi, fonetika, fonetik kompetensiya, kreativ yondashuv, axloqiy qadriyatlar, integratsiya, nutq madaniyati

Аннотация: В статье рассматривается педагогическая значимость интеграции креативного подхода и нравственных ценностей в процессе формирования языковой компетентности на основе фонетики в начальном образовании. Анализируются возможности активизации речевой деятельности учащихся начальных классов посредством использования креативных методов и заданий при формировании фонетической компетенции как важного компонента языковой компетентности. Особое внимание уделяется внедрению нравственных ценностей в содержание фонетических упражнений, способствующих развитию культуры речи, положительного поведения и социальной ответственности учащихся. В статье научно обосновывается эффективность интеграции креативного подхода и нравственных ценностей в формировании языковой компетентности учащихся начальных классов, а также предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: начальное образование, языковая компетентность, фонетика, фонетическая компетенция, креативный подход, нравственные ценности, интеграция, культура речи

Abstract: This article examines the pedagogical significance of integrating a creative approach and moral values in the process of forming language competence based on phonetics in primary education. The study analyzes the possibilities of activating primary school students' speech activity through the use of creative methods and tasks in the development of phonetic competence as a key component of language competence. Particular attention is paid to the incorporation of moral values into the content of phonetic exercises, which contribute to the

formation of speech culture, positive behavior, and social responsibility. The effectiveness of integrating a creative approach and moral values in developing language competence among primary school students is theoretically substantiated, and practical recommendations are proposed.

Keywords: primary education, language competence, phonetics, phonetic competence, creative approach, moral values, integration, speech culture

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarda faqatgina bilimlarni egallashni emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim jarayoni uchun tayanch bo'lib xizmat qilgani sababli bu davrda til kompetentligini shakllantirish masalasi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Til kompetentligi o'quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va fikrni to'g'ri hamda ravon ifodalash imkonini beruvchi asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda til kompetentligini shakllantirish jarayonida fonetika ta'limi alohida o'rin tutadi. Fonetika nutq tovushlari, ularning talaffuzi va nutqdagi o'rnini o'rganishga xizmat qilib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, fonetika darslari mazmunan quruq nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarning qiziqishi va faolligini oshiruvchi metodlar asosida tashkil etilishi zarur. Bu jarayonda kreativ yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi pedagogik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar — bu shaxsning jamiyatda o'zini tutishi, nutq madaniyati, hurmat, mas'uliyat va ijtimoiy muomala me'yorlarini belgilovchi muhim omillardir. Fonetika ta'limi jarayonida axloqiy mazmundagi matnlar, topshiriqlar va mashqlardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat til kompetentligini, balki ularning axloqiy dunyoqarashini ham boyitish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, fonetika asosida til kompetentligini shakllantirishda kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlarni integratsiyalash zarurati yuzaga keladi. Mazkur integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy rivoji bilan bir qatorda ularning shaxs sifatida kamol topishiga, ijtimoiy faoligi va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda fonetika ta'limida kreativ metodlar va axloqiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalasi yetarlicha tizimli yoritilmagan.

Shu bois, ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida fonetika asosida til kompetentligini shakllantirishda kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlar integratsiyasining pedagogik ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, mazkur yondashuvning amaliy imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilib qo'yildi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Lingvistik (lingvistik) kompetentsiya - bu til tizimi, nutqdagi til birliklarining ishlash qoidalari to'g'risida bilimlarga ega bo'lish va bu tizimdan boshqa odamlarning fikrlarini anglash va og'zaki va yozma shaklda o'z fikrlarini ifoda etish uchun foydalanish qobiliyatidir.[1]

Ona tili darslarida ta'lim oluvchilar tayanch hamda fanga oid kompetensiyalardan, imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqloq g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o'quvchi shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanida o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini har jihatdan shakllantirish ta'lim sohasidagi barcha pedagogik fanlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi va ana shu fanlarni to'liq o'rganishga tayyorlaydi. Bu jarayonda o'quvchilarga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda ta'lim berish o'zining kutilgan samarasini beradi.

Boshlang'ich ta'limda-o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: 1.Savod o'rgatish va nutq o'stirish. 2.Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.[2]

"Fonetika" bo'limining izchil kursi "Fonetika va grafika ", "Nutq tovushi va harf", "Unli tovushlar", "Undosh tovushlar", "Nutq a'zolari", "Lab tovushlari", "Til tovushlari", "Burun tovushlari", "Bo'g'iz tovushi", "Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi" singari mavzularni o'z ichiga qamrab oladi.

"Nutq tovushi va harf" mavzusini o'tishda o'qituvchi ayrim so'zlarni o'quvchilar diqqatiga havola etib, bu so'zdagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unililar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a'zolarini belgilashni topishlari mumkin.[3]

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirish, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishi zarur. Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli — o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi.

Savodga o'rgatish davrida o'quvchilarga avval unli tovushnio'rgatishdan boshlanadi. Dastlab unli yozilishi talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri, aniq yozilishi va qo'shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e'tibori tortiladi. O'qituvchining savod o'rgatish davrdagi darslarni to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarning fonetik va grafik bilimlarni kelgusida puxta egallashlariga zamin yaratadi. O'qituvchining bu sohadagi yutuqlarilari uning dars o'tish usullari, mahorati, darsda qo'llaydigan didaktik materiallarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Intefaol dars jarayonini tashkillashtirish, o'quvchilarning dars davomida faollashuviga, ularni darsni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'sishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Bu esa o'quvchilarning o'tilgan mavzuni puxta egallashlariga zamin yaratadi.

Inrefaol usullar xilma-hil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi doimo yangiliklar izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni qo'llashi, o'z bilimini doimiy ravishda oshirib borishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Fonetika" garchand tilning tovush tizimi bilan ish ko'rsa-da, ammo o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, tez va to'g'ri o'qish malakalarini takomillashtirish, fikrni ifodalashda

tovushlarning boy imkoniyatlaridan foydalanish, mant yaratishga o'rgatish diqqat markazida bo'lishi lozim.[4]

Didaktik o'yinlar nazariy amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rganish, yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi.

Shuni takidlab o'tish lozimki, ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyati sifatida qarash lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ona tili darslarida milliy qadriyatlarni singdirish jarayoni faqat nazariy tushunchalar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U real hayotda bolalar ongiga chuqur singib borishi, kundalik faoliyatda aks etishi uchun dars jarayonida tarbiyaviy ta'sir kuchli bo'lishi zarur. Buning uchun bir necha muhim tavsiyalar mavjud.

Avvalo, o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi hal qiluvchi o'rin tutadi. O'qituvchi milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy, chuqur hurmatga asoslangan munosabatda bo'lsa, bu uning har bir darsida, har bir harakatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar o'z o'qituvchisini kuzatadi, unga ergashadi, demak, tarbiya birinchi navbatda o'qituvchining o'zida namoyon bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, har bir darsga axloqiy-tarbiyaviy element kirgizilishi shart. Dars faqat til qoidalarini o'rgatish emas, balki har bir matndan saboq chiqarish, obrazlar orqali yaxshilik, mehr, halollik, vatanparvarlik, muruvvat kabi tushunchalarni anglashga yordam berishi kerak.

Hatto fonetik tahlil yoki imlo mashqlari ham tarbiyaviy kontekstda olib borilishi mumkin. Masalan, "ota", "ona", "el", "halol" kabi so'zlar ustida ishlash davomida ularning ma'naviy-axloqiy mazmuni ham ochib beriladi.

Uchinchidan, ota-onalar va mahalla bilan hamkorlikda milliylikni mustahkamlovchi tashabbuskor darslar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlarga xalq ertaklari haftaligi, milliy libos kuni, "Onamning duosi" mavzusidagi insholar tanlovi, milliy hunarmandchilik buyumlari ko'rgazmasi kabi interaktiv, hayotga yaqin loyihalarni kiritish mumkin. Bu o'quvchilarda nafaqat bilim, balki hayotiy ko'nikmalar, madaniyatga bo'lgan hurmatni shakllantiradi.[5]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada boshlang'ich ta'limda fonetika asosida til kompetentligini shakllantirishda kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlarni integratsiyalash masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, fonetika darslarida kreativ metod va topshiriqlardan foydalangan holda o'quvchilarning nutqiy faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyati sezilarli darajada rivojlantiriladi. Shu bilan birga, axloqiy qadriyatlarni fonetika mashqlariga singdirish orqali o'quvchilarda nutq madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy odob-axloq me'yorlari shakllanadi.

Integrativ yondashuv o'quvchilarda til kompetentligini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning shaxs sifatida kamol topishiga, ijtimoiy faollik va axloqiy ongini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik amaliyotda fonetika darslarini tashkil etishda kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlar integratsiyasini doimiy qo'llash tavsiya etiladi.

Maqola natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Boshlang'ich sinflarda fonetika mashqlarini kreativ va interaktiv metodlar asosida tashkil etish;

Mashqlar mazmunida axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi matnlar, vazifalar va o'yinlardan foydalanish;

O'quvchilarning nutq faoliyatini baholashda ijodiy yondashuv va axloqiy me'yorlarni inobatga olish;

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va dars modullarini yaratishda integratsiyalashgan yondashuvni ilgari surish.

Shu tariqa, fonetika asosida til kompetentligini rivojlantirishda kreativ yondashuv va axloqiy qadriyatlar integratsiyasining qo'llanilishi boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning kompleks shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sattarova S.T. jurnal "Young Scientist" Kazan // From the experience of individualization of teaching foreign languages // №1(60), January 2014 P.571- 574
2. <https://fayllar.org/ona-tili-fanidan-oquv-dasturi-1-2-4-sinf-uqtirish-xati.html>
3. G'ulomov, M.Qodirov ,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova,V.Karimova. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent -2012.144-bet
4. G'ulomov, M.Qodirov ,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova,V.Karimova. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent -2012.146-bet
5. Kariyeva, M. A. (2024). Inculcation of national values in english classes as a pedagogical process. Current Research Journal of Pedagogics, 5 (10), 29–35.
6. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-05>